

---

## VILOYAT HOKIMI YOZYOVONDA



Farg'ona viloyati hokimi Xayrullo Bozorov tumanimizda bo'lib, g'alla o'rim-yig'imi va g'o'za parvarishi jarayonlari bilan tanishdi. Viloyat rahbari „Mezon“ fermer xo'jaligida bo'lgan chog'ida g'o'zaning yangicha ya'ni gektariga 250 ming ko'chat qoldirib, hosildorlikni kamida 50 tsentnerga yetkazish usulida parvarishlanayotgan g'o'za maydonlarini borib ko'rdi.

„Qorasqol“ MMTP hududidagi „Boqiy“ fermer xo'jaligida davom etayotgan g'alla o'rim-yig'imi jarayonlari bilan tanishgan viloyat hokimi gektaridan 80 tsentnerdan oshirib hosil olayotgan fermer xirmoniga baraka tilab, rahmat aytdi. Shu yerda Xayrullo Bozorov don tashiyotgan yuk mashinalari haydovchilari bilan ham suhbatlashdi.

Viloyat hokimi Yozyovonda bo'lgan chog'ida tuman hokimi Dilshodjon Djalilov boshliq sektor rahbarlari, hokim o'rinbosari Abduhalim Saidov hamrohlik qildilar.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2023-06-22 16:08:47